

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

Farg‘ona vodiysi avtomobil yo‘llarida harakat xavfsizligini ta‘minlash uchun avtomobil yo‘llarida harakat xavfsizligini va qulayligini oshirish, yo‘llarda insonlar o‘limi holatlarini keskin kamaytirish, yo‘l infratuzilmalarini takomillashtirish hamda yo‘l harakati ishtirokchilari uchun qulay sharoitlar yaratish va YTHni kamaytirishda zamonaviy raqamli texnologiyalarni qo‘llash hamda avtomobil yo‘llarida harakatni tashkil etishning ilg‘or usullarini tadbiq etish orqali harakat xavfsizligini oshirish dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Dunyoda yo‘l-transport hodisalari qurbonlarining statistikasi: <https://parstoday.uz/news/world-i77540>. noyabr-20, 2022 12:37 Asia/Tashkent.
2. Musulmonov K.N. Shahar magistral ko‘chalarida yo‘l harakati xavfsizligini oshirish usullarini takomillashtirish. Avtoreferat dis. tex. fan. fal. dok.(PhD). – Toshkent: TDTrU, 2022. – 25 b.
3. O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Jamoat xavfsizligi departamenti Yo‘l harakati xavfsizligi xizmati statistik ma‘lumotlari: <https://daryo.uz/k/2024/02/28/ozbekistonda>.
4. O‘roqov A.X., Tashev D.V. Farg‘ona vodiysining avtomobil yo‘llarida harakat xavfsizligi sharoitini tadqiq qilish //Научно-технический журнал, ФерПИ / - Фергана, 2021. №1. –С. 14-19 bet.
5. Azizov Q.H. Harakat xavfsizligini tashkil etish asoslari. T. Yozuvchi. 2009. 244 b.

MAXMUD XO‘JA BEHBUDIY - JADIDCHILIKNING ICHKARISIDAGI TASHQI DUNYOLAR

Hoshimova Odina

*Andijon viloyati Andijon tumani Iqtisodiyot va pedagogika universiteti ingliz filologiyasi
yo‘nalishi 2- bosqich talabasi.*

Kosimova N.D.

*Ilmiy rahbar; Iqtisodiyot va pedagogika universiteti
ijtimoiy – gumanitar fanlar kafedrasi ,p.f.n. dotsent*

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek jadidchilik harakatining yetakchi vakillaridan biri – Maxmudxo‘ja Behbudiyning ma‘rifiy va siyosiy faoliyati, uning tashqi dunyo bilan aloqalari hamda bu aloqalarning jadidchilik harakatiga ta‘siri yoritilgan.

Kalit so‘zlar; Fotografiya va yangi texnologiyaga ochiqlik , taxallus, safar sabablari, ruxiy uyg‘onish , vasiyatnoma , ‘‘Padarkush’’ , adabiy g‘oyalar.

Хошимова Одина

студент 2 курса английского языка и литературы, Университета Экономики и педагогики, Андижанской области

Касимова Н.Д,

Научный руководитель; профессор Социально-гуманитарных наук , Университета Экономики и педагогики , Андижанской области.

Аннотация: В данной статье рассматриваются просветительская и политическая деятельность одного из ведущих представителей узбекского джадидистского движения – Махмудходжи Бехбуди. Освещаются его связи с внешним миром и их влияние на джадидистское движение .

Ключевые слова; Откровенность фотографий и новым технологиям, псевдоним, причины путешествий , духовное пробуждение, завещание, роман ‘ ‘ Падаркуш ‘ ‘, литературные произведения и идеи .

**MAHMUDKHOJA BEHBUDI – INTERNAL WORLDS WITHIN
THE JADID MOVEMENT**

Hoshimova Odina

2nd – year student of English Philology at Andijan university of Economics and Pedagogy , Andijan region, Andijan district.

Kosimova N.D

Academic Advisor; Department of Social and Humanitarian Sciences, Andijan university of Economics and Pedagogy , PhD, Associate Professor

Annotation: This article explores the educational and political activities one of the leading figures of the Uzbek Jadiddism movement – Mahmudkhoja Behbudi. It highlights his connections with the outside world and how these interactions influenced the Jadidist movement.

Key words; Openness to photography and new technologies , pseudonym , reasons for travel , spiritual awakening , will, ‘ ‘Padarkush ‘ ‘, literary ideas.

KIRISH

Bugungi kunda O'zbekiston taraqqiyotining muhim yo'nalishlaridan biri bu – milliy ma'anaviyatni tiklash , tarixiy merosni chuqur o'rganish va uni xalqaro maydonga olib chiqishdir. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev bu borada ko'plab islohotlar va tashabbuslarni ilgari surib, jadidlar merosiga alohida e'tibor qaratmoqda . 2021 – yil 26-martdagi ‘ ‘Jadidlar –

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

millat faxri” mavzusidagi chiqishida davlat rahbari shunday degan edi; “Agar bugun O‘zbekistonimizdagi yangi davr, uyg‘onish davri boshlangan bo‘lsa ,bu avvalo,jadid bobolarimiz boshlab bergan ma‘rifat yo‘lining davomidir.” Shuningdek , 2022-yil 14-yanvarda imzolangan PQ-104-sonli Prezident qarorida “Ma‘naviyatni yuksaltirish va yoshlar bilan ishlash bo‘yicha 5 ta muhim tashabbus “doirasida jadidlar faoiyatini chuqur o‘rganish ,ularning asarlarini nashr etish va keng targ‘ib qilish bo‘yicha aniq topshiriqlar berildi. Ana shu islohatlar zahirida xalqimizni zamonaviy bilimlar bilan qurollantirish , ularni dunyo ilm-fani va taraqqiyoti bilan uyg‘un holda tarbiyalash g‘oyasi yotadi. Bu g‘oya esa ,o‘z ildizlarini XX asr boshlarida faoliyat yuritgan Maxmudxo‘ja Behbudiy kabi jadidlarning merosida topadi. Behbudiy o‘z faoliyati davomida xalqni nafaqat ichki islohotlarga ,balki tashqi dunyodagi ilg‘or tajribalarni o‘rganishga, o‘zaro madaniy aloqalarni kengaytirishga chorlagan. Uning qarashlari bugungi O‘zbekistonda olib borilayotgan “Yangi O‘zbekiston – yangi taraqqiyot “ siyosiy g‘oyasi bilan uyg‘unlashadi.

Maxmudxo‘ja Behbudiy nafaqat o‘z zamonasi uchun, balki hozirgi zamon kontekstida ham o‘ta dolzarb shaxsdir. Ko‘pchilik uni jadid maktablari asoschisi, “Padarkush” dramasi muallifi yoki “Tarjimon” gazetasining nashriyotchisi sifatida biladi. Biroq, uning hayoti va faolliyatida shunday jihatlar borki , ular ko‘pchilik tarixiy izlanishlarda soyada qolgan. Maxmudxo‘ja Behbudiy 1875-yilning 19-yanvarida Samarqand yaqinidagi Baxshitepa qishlog‘ida muftiy oilasida dunyoga kelgan. Otasi Behbudiy Solihxo‘ja o‘g‘li Turkistonlik , Ahmad Yassaviyning avlodlaridan, ona tomonidan bobosi Niyozxo‘ja Urganchlik bo‘lib, Amir Shomurod zamonida Samarqandga kelib qolgan.

Ilm emas, teatr; Behbudiyning ruhiy uyg‘onishi

Maxmudxo‘ja Behbudiy dastlab islomiy ilmlarni o‘rganishda davom etar ekan, yuragida ma‘rifat emas, sahna tilida gapiruvchi adolat uyg‘ondi. 1911- yilda yozilgan “Padarkush” dramasi u birgina sahna asari sifatida emas, balki jamiyatga hayqiriq sifatida qalamga olgan. U teatrni “yangilikni ko‘z bilan ko‘rsatadigan madrasa “ deb atagan. Bu davrda o‘zbek jamiyatida teatr – musulmon jamiyatida nomaqbul deb qaragan bo‘lsada, Behbudiy uni ijtimoiy o‘zgarishlar vositasi sifatida ilgari surdi. U xalqni xayoliy masalalardan ko‘ra real muammolar bilan yuzlashtirishga harakat qilgan.

“Behbudiy” taxallusi; bu ismni tanlash sababi

Ko‘pchilik uchun u “Maxmudxo‘ja Behbudiy “ nomi bilan tanilgan, ammo bu taxallus oddiy emas. “Behbud” fors tilida “taraqqiyot , yuksalish” degan ma‘noni bildiradi. Behbudiy bu taxallusni shunchaki adabiy laqab sifatida emas, balki o‘z hayotiy g‘oyasining ifodasi sifatida tanlagan “u har doim yuksalishni , jamiyatni uyg‘otishni istagan.

Behbudiy va fotografiya ; yangi texnologiyaga ochiqlik

Maxmudxo‘ja Behbudiy fotografiyani ham o‘rganib, uni musulmonlar hayotini zamonaviylashtirish vositasi sifatida ko‘rgan. U o‘sha davrda hali keng tarqalmagan

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

fototexnikani o'z maqolalarida tilga olgan va bu orqali xalqni dunyoviy tafakkurga chaqirgan. Shuningdek, u Samarqandda birinchi musulmon fotografiya kursi ochilishiga homiylik qilgan.

Behbudiy Hindistonda; noan'anaviy safar sabablari

1914-yilda Bexbudiy Hindistonga safar qilgan. Bu safar diniy va siyosiy emas – madaniy tahlil uchun amalga oshirilgan. U Kalkuttada musulmon bosmachilik madaniyati va matbuot faoliyatini o'rgangan. Hindiston musulmonlarining bosmachilikdagi mustaqil ruhidan ilhomlangan holda o'z yurti uchun matbaa va ommaviy axborotni kuchaytirish g'oyasini olib kelgan.

Hibsga olingandan so'ng yozgan so'nggi maktubi

1920- yilning boshlarida Bexbudiy Turkmanistonda hibsga olinadi. Uning so'nngi yozgan xati “O'lim oldidan qog'ozga o'zlari- shogirdlariga emas , yosh bolalariga qaratilgan edi. Bu xatda u shunday degan edi; “ Agar bir kishi jamiyatni o'zgartira olmasa , o'n bola uni kelajakda o'zgartira oladi. O'qinglar. O'qitilar “.

Tashqi dunyoga ochilgan ma'rifiy nigoh

Behbudiy jadidchilik harakatini zamonaviy dunyo bilan uyg'unlashtirishga uringan. U sayohat qilgan mamlakatlari – Rossiya,Turkiya,Misr va Hindiston – uning dunyoqarashini shakillnatirishda muhim rol o'ynadi. Ayniqsa,1909-yilda Istanbul va Qohiraga qilgan safari musulmon jamiyatlarining turli rivojlanish yo'llari haqida real tasavvur berdi. Bu safarlar davomida u islohotchi diniy ulamolar , jurnalistlar va ma'rifatchilar bilan uchrashdi.

Jadid maktablari orqali tashqi dunyo bilan aloqalar

Behbudiy yangi usulda ta'lim beradigan jadid maktablarini ochishga bosh- qosh bo'ldi. Ushbu maktablarda arab, fors tilidan tashqari rus tili ham o'rgatilgan. Rus tilini o'rganish orqali o'zbek yoshlari tashqi dunyo bilan bevosita aloqa qila oladign darajaga chiqishlari mumkin edi. Bu – zamonaviy dunyoga ochilishga xizmat qiluvchi muhim qadamlardan biri edi.

Matbuot va tashqi siyosiy tafakkur

Behbudiy tomonidan 1912-yilda “ Taraqqiy” gazetasi va keyinchalik “Oyina” jurnali nashr etildi. Bu nashrlar orqali u musulmon dunyosidagi islohatlar, G'arb taraqqiyoti ,ta'lim tizimi , siyosiy yangiliklar haqida ma'lumotlar berib bordi. “Oyina”da Hindiston, Eron, Usmoniylar imperiyasi , Rossiya musulmonlar hayoti haqida maqolalar chop etildi. Bu esa xalqning tashqi dunyo haqida bilimini kengaytirgan.

“Padarkush” va tashqi adabiy g'oyalar

Behbudiyning mashxur dramasi “Padarkush” 1911 o'zbek adabiyotida yangilik bo'lib,unda G'arb dramaturgiyasining ta'siri sezildi. Asarda ota-onani qadrlash,milliy tarbiya, yangicha fikrlash masalalari ko'tarilgan. Bu esa uning tashqi adabiy g'oyalarni mahalliy ijtimoiy muammolar bilan uyg'unlashtirishga uringanidan dalolat beradi.

“Padarkush” – o'zbek dramachiligining hamma yakdil e'tirof etgan birinchi namunasidir. Mutaxassislar uni ham janr, ham mazmunga ko'ra yangi o'zbek adabiyotini boshlab bergan bir asar sifatida baholaydilar. Muallif “Milliy fojia” atagan 3 parda 4 manzarali bu drama hajman

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

juda ixcham, mazmunan nihoyatda sodda va jo'n. U jaholat va nodonlik haqida o'qimagan bolaning buzuq yo'llarga kirib ,o'z otasini o'ldirgani haqida hikoya qiladi. Orqa -oldini o'ylamagan boyning Toshmurod ismli o'g'li bor. O'g'lini o'qitmaydi ,oqibatda u ko'cha bezorilarga qo'shiladi. Restoranda maishatga puli yetmay,sheriklarini tunda uyiga boshlab keldi. Boy uyg'onib,ularni sezib qoladi, lekin uni o'ldirib pulini olib ketadilar. Xulosa ; jaholat va nodonlik otaning ham ,bolaning ham boshiga yetadi.

“Padarkush” dastlab, Samarqandda 1914-yilda 15- yanvarida sahnaga qo'yildi. “Xalq nihoyat ko'p kelib ,belat yetmagani va joyni yo'qligi uchun uch – to'rt yuz kishi qaytib ketdi “ – deb yozadi mahalliy matbuot.

Spektakl o'z maishatiga o'ralib dunyoni unutgan millatdoshlarga chaqmoqdek ta'sir etdi. Unda boy rolini Abdusalom Abdurahim o'g'li o'ynagan edi.

“Padarkush” Turkistonni junbushga keltirgan qirg'in- barot inqilob yillarida ham sahnadan tushmadi. Bir tomondan,millatni ma'rifat va taraqqiyot sari undashda buyuk rol o'ynagan bo'lsa , ikkinchi tomondan , professional o'zbek teatri va dramachiligining maydonga kelishi hamda taraqqiyotida muhim xizmat qildi.

Shuningdek ,Behbudiy bir qator darsliklar yozgan. O'Zse dagi “Behbudiy “ maqolasi muallifi marhum S.Qosimov adibning 6 ta darsligini qayd etadi; “Muntaxabi jug'rofiyai umumiy “ ya'ni “Qisqacha umumiy geografiya” , “Kitobat ul- atfol “ ya'ni “Bolalar maktublari”, “Muxtasari tarixi islom “ ya'ni “ Islomning qisqacha tarixi”, “Madxali jug'rofiyai umroniy “ ya'ni “ Aholi geografiyasiga kirish “ , “Muxtasar jug'rofiyai Rusiy “ , ya'ni “Rusiyaning qisqacha geografiyasi” .

Shulardan bittasiga – “Muntaxabi jug'rofiyai umumiy “ga to'xtalamiz. Asarning to'la nomi “ Kitobi muntaxabi jug'rofiyai umumiy va namunai jug'rofiya”. 1905 – yil 24- avgustda Sankt-Petrburg senzurasidan ruxsat olinib , 1906- yil Samarqandda G.I. Demurov matbaasida chop etilgan. 106 sahifadan iborat . Muallif bu “qadim fan”ga taalluqli “turkiy, arabiy, forsiy, rusiy, lug'atlarga tasnif bo'lgan o'ttuz qadar qadim va jadid kutub va risoili jug'rofiya , hay'ati riyoziy, tarixiy, tabiiy “ lardan va yana juda ko'p turli - tuman ma'lumot – manbalardan foydalanib yozganini qayd qiladi.

“Jug'rofiya degan so'z yunoniy,lug'ati arabiyga ta'rifi ard ma'nosiga , ya'ni yer va tufroqni bayon qiladurg'on ilmni aytilur “ , - izoh beradi muallif . So'ng Behbudiy uning turlariga to'xtaydi. “Chunonchi , - yozadi u , - Yerni shakldan , osmon ila Yer arosidagi xosiyati va osmondagi nimarsalar ila nisbati va harakatidan bayon qilaturg'on ilmni “jug'rofiyai riyoziy “ , Yerni xosiyati , tufroq past-u balandligi , har xil giyoh -u konlari , tog' – daryo ,ko'l , mijoz – u havosidan bahs qilaturg'on ilmni “jug'rofiyai tabiiy “ ataladur “.

Muallif xulosa qiladi ; “ Yer ustig'a bo'lgan voqealar to'g'risinda har bir nav ishni ushbu ilmg'a bayon qilib, jug'rofiya kalimasini oxiriga o'shal ishga taaluq ilm va fanni oti qo'shiladur. Chunonchi , “jug'rofiyai tarixiy” va boshqalaridek. Xulosa, bu zamong'a jug'rofiya ilmi

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

dunyoni va andagi xaloyiq, hayvonot, umronot “obodlik” va harnaki dunyog’a bordur , bildiraturg’on keraklik bir ilmi jahonnamodur “.

Kitobning dastlabki sahifalarida jug’rofiyaning fan sifatida maydonga kelish tarixi , qadim Turkiston olimlarining bu sohadagi xizmatlari yoritiladi , asarlari keltiriladi.

Behbudiy hamisha xalq bilan birga bo’ldi.

Vatan taqdiri kun tartibiga qo’yilgan 1917- yilning 16- 23- aperlida Toshkentda bo’lib o’tgan Turkiston musulmonlarining 150 vakili ishtirok etgan o’lka qurultoyida hayajonli nutq so’zladi. Millatni o’zaro ixtiloflardan voz kechishiga , buyuk maqsad yo’lida birlashishga , ittifoq bo’lishga chaqirdi.

Xuddi shu ixtilofimiz sababli “mamlakat qoidasi ila bizni idora eturlar “ deb ochiq aytdi.

U haq edi. Mustamlakachilar “50 yil ilm- ma’rifatdan chetda saqlab kelgan”lari ,Turkistonni osonlik bilan qo’ldan chiqarmas edilar. Fitna va ig’vo tinimsiz davom etar edi. Shundaylardan biri 1917-yilning bahorida Buxoroda yuz bergan edi. Amir fevral o’zgarishlarini hisobga olib, rus elchixonasining maslahati bilan islohot e’lon qiladigan bo’ladi. Va bu farmonni ushbu elchixonaning boshlig’i janob Miler tayyorlaydi. Har xil anglashilmovchiliklarning oldini olish maqsadida sobiq general – gubernator , endilikda Rusiya Muvaqqat hukumatining Turkiston komissari Kuropatkin topshirig’iga ko’ra Samarqand Ijroiya qo’mitasi Buxoroga bir necha kishilik hay’at yubordilar. Ular orasida Behbudiy ham bor edi. 7-aprel islohot e’loni oldindan mo’jallanganidek tantanaga, tantana esa fojiaga aylanadi. Amir va yoshlar ,mullalar va jadidlar o’rtasida o’tib bo’lmas choh paydo bo’ladi. Miller buning aybini Behbudiyga qo’yadi. Faqat Miller emas,Toshkentda 9-aprelda boshlangan Turkiston Ishchi va soldat deputatlari sovetlarning birinchi o’lka syezdida ayrim rus deputatlari Buxoro fojiasining sababini – Samarqanddan “o’z ixtiyorlari ilan” brogan deputatlarga to’nkaydilar. Millatni ich- ichidan qayrash va nizo chiqarish izchil davom etadi. Behbudiy mazkur syezdda minbarga chiqib bor voqeani tushuntirib bergan va bu haqida “Buxoro voqealari va daf’i tuhmat “ degan maxsus maqola yozgan edi.

Najotsiz inqilob – Maxmudxo’ja Behbudiy

Hoji Muin Shukrullo o’g’lining “ Mexnatkashlar tovushi “ gazetasining 1921 – yil 29- mart sonida bosilgan va so’ngroq “ Inqilob” jurnalining 1922-yil 7-yanvar sonida qayta e’lon etilgan “ Mufti Maxmudxo’ja hazratlarining vasiyatnoma” da qayd qilinishicha , Shaxrisabzda qo’lga olingan adib taxminan ikki oy o’tgach , sheriklari Muhammadqul va Mardonqul bilan birgalikda Qarshiga keltirilib zindonga tashlanadi. U yerda ham bir necha kun yotib, so’ng Qarshi begi Tog’aybekning buyrug’i bilan zindon yaqinidagi “podsholik” chorbog’ida o’ldirilgan. Bu taxminan yoz oylariga to’g’ri keladi.

Uning qatli haqidagi xabar o’sha paytdagi poytaxtimiz Samarqandga rosa bir yildan keyin ma’lum bo’ladi. 1920-yilning aprelda butun Turkiston motam tutadi. O’nlab marsiyalar yoziladi. “ Behbudiyning sag’anasini izladim” deb atalar edi Fitratning bir she’ri .

Ayniyda bir emas, uch she’r bor.

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

Sani mundin buyon Turon ko'rolurmu, ko'rolmasmu

Saning mislingni Turkiston topolurmu, topolmasmu

Deb boshlanardi uning she'rlaridan biri.

Mashxur Cho'lpon ham Behbudiyning fojiali o'ldirilganiga bag'ishlab she'rlar yozdi.

Qayg'uringiz , kishanlarni yasovchi ustalar ,

Boshqalarni tubanlar deb atovchi xo'jalar

Sizlar uchun yoz boshining qoridek

Erur kunlar keladur

Sizlar uchun alvastining zoridek

Yig'lar kunlar keladur

Deb yozgan edi u .

Vasiyatnoma ushbudir ;

“ Ey , Turkiston maorif ishlarida bo'lg'on o'rtoq va o'g'lonlarim Men o'zim garchand bandli bo'lsam-da ,sizlarni esimdan chiqarmayman va sizlarga biroz vasiyat qilib o'taman . Mani sevar o'rtoqlarim Manim so'zlarimni quloqlaringizg'a olingizlar Bir ikki oydan beri Buxoro shaharlarida bandi bo'lib yurub , axir o'n kundan beri bir yerda bu zolimlarning qo'lig'a tushib bandi bo'ldik. Jadid , kofirlik otini ko'tardik. O'rtoqlarim Siddiqiy ,Ayniy , Fitrat, Qori va Akobir Maxmud va o'g'lonlarim Vadud Maxmud , Abdulqodir Shakuriy .

Sizlarg'a vasiyat qilaman. Maorif yo'lida ishlaydurg'on muallimlarning boshini silangizlar . Maorifg'a yordam etingiz. O'rtadan nifoqni ko'taringiz. Turkiston bolalarini ilimsiz qo'ymangizlar . Har ish qilsangiz jamoat ila qilingizlar. Hammaga ozodlik yo'lini ko'taringizlar . Buxoro tuprog'ga tezlik ila yo'l boshlangizlar. Ozodlikni tezlik ila yuzaga chiqaringizlar. Bizning qonimizni zolim beklardan talab qilingizlar. Maorifni Buxoro tuprog'ida joriy qilingizlar.

Bizning otimizg'a maktablar ochingizlar. Bizlar ul choqda qabrimizda tinch yoturmiz. Maning o'g'lonlarimg'a salom yetkuringizlar. Bu hamrohlarimning avlodlaridan xabardor bo'linglar.

Xulosa

Maxmudxo'ja Behbudi o'zbek jadidchiligini ichki islohotlar doirasida qamab qo'ymadi. U jadidchilikni dunyoviy bilimlar, xalqaro fikrlar va tashqi madaniyatlar bilan boyitishga harakat qildi. Uning har bir faoliyati – maktab ochish , gazeta chiqarish ,drama yozish yoki siyosiy majlislarda ishtirok etish – tashqi dunyo bilan o'zaro muloqotga xizmat qilgan. Shuning uchun u nafaqat jadidchilikning ichki targ'ibotchisi, balki uning tashqi dunyo bilan bog'lovchi ko'prigi bo'la oldi.

REFERENCES:

- 1 2021-yil 26- martdagi “Jadidlar – millat faxri ” mavzusidagi davlatimiz rahbari chiqishi.
- 2 2022-yil 14 – yanvarda imzolagan PQ-104 – sonli prezident qarori.
- 3 Mahmudxo'ja Behbudi “ Tanlangan asarlar ” Toshkent “Ma'naviyat ” 2009
- 4 “Behbudi xotiralari ” O'zbekiston FA
- 5 Xotira.uz arxivi , 2021
- 6 Aziz Qayumov 1992 , Muqimova 2014 .